

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

<p>«KELISHILGAN» San'atsnunoslik fakulteti dekani  S.S. Azimov «25» 02 2023 y.</p>	 <p>«KELISHILGAN» O'quv ishlari bo'yicha prorektor  R.G. Jumayev «25» 02 2023 y.</p>
---	---

5150700-Cholg'u ijrochiligi (Xalq cholg'ulari) yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik
fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon
DASTURI

2.00. Ixtisoslik fanlari:

2.08. Orkestr sinfi (O'zbek xalq cholg'ulari orkestri)

3.01. Xalq cholg'ularida ijrochilik

BUXORO - 2023 yil

ANNOTATSIYA

5150700 – Cholgʻu ijrochiligi (Xalq cholgʻulari) yoʻnalishi boʻyicha fan dasturi talablarga mos asarlarni ijro etib berishi koʻzda tutilgan.





Bitiruvchi talabalar dasturda koʻrsatilgan musiqa asarlaridan ikkitasini ijro etib, asar toʻgʻrisida oʻzlarining fikr va mulohazalarini bayon etishlari talab qilinadi.



Bitiruvchilar “Orkestr sinfi (Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri)” hamda “Xalq cholgʻularida ijrochilik” fanlari boʻyicha quyidagi tartibda imtihon topshiradi:

1. Cholgʻuda ijro;
2. Kollokvium.

5150700 – Cholgʻu ijrochiligi (Xalq cholgʻulari) yoʻnalishi barcha bitiruvchilar belgilangan dasturni yakka tarzda, joʻrnavor joʻrligida yoddan ijro etishlari shart.

Bitiruvchi-talabalar asarlarning nota matnini xatosiz, surʻati koʻrsatilgan tezlikda, ijro shtrixlarini toʻgʻri qoʻllagan holda, intonatsiya sofligida amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarishi, shuningdek, pozitsiya va applikatorani toʻgʻri qoʻllagan holda, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini toʻliq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalari qoʻllanilib, tovush kuchiga eʼtibor berib ijro etishi lozim.

Tuzuvchilar:		O.I.Karimov , Musiqa taʼlimi kafedrası dotsenti
		I.F.Qayumov , Musiqa taʼlimi kafedrası katta oʻqituvchisi
		Sh.X.Kamolov , Musiqa taʼlimi kafedrası katta oʻqituvchisi
		U.M.Mirshayev , Musiqa taʼlimi kafedrası katta oʻqituvchisi

Taqrizchilar:		S.B.Saidiy , NavDPI professori, sanʼatshunoslik fanlari nomzodi
		B.X.Madrimov , Musiqa taʼlimi kafedrası professori, p.f.n

Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida koʻrib chiqilgan va tasdiqlangan. 2023 yil «31» 01 dagi 8 - sonli bayonnoma.

KIRISH

5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (Xalq cholg‘ulari) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta‘limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga “bakalavr” malaka(daraja)si hamda oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Bakalavr yakuniy davlat attestatsiyasi doirasida o‘quv rejadagi “Ixtisoslik fanlari” fanlaridan amaliy imtihon topshirishi nazarda tutilgan.

O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta‘limdagi o‘rni

Bakalavriyat ta‘lim bosqichi uchun tuzilgan mazkur dastur - bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishining orkestr sinfi (xalq cholg‘ulari) ixtisosligi bo‘yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo‘ljallangan. Dastur Davlat ta‘lim Standartlariga binoan san‘at sohasida bakalavrlar tayyorlash o‘quv rejalari asosida tuzilgan va undan ishchi o‘quv dasturlarini tuzishda foydalaniladi.

Orkestr sinfi fani dirijor o‘qituvchisi, xalq cholg‘ulari orkestri rahbari, konsert ijrochi: mustaqil kasbiy ish faoliyat ko‘rsatadi mahoratiga ega kadrlarni tayyorlash uchun muhim o‘rin tutadi. Talabaning asosiy rahbari hisoblangan mutaxassis o‘qituvchi uni faqat professionalgina emas, balki jamiyatning badiiy didini, ilg‘or musiqa san‘atini ommalashtira oladigan faol madaniyat arbobini ham tayyorlaydi. Orkestr sinfi cholg‘u fanlaridan biri hisoblanadi va u - Dirijyorlik, Ansambl sinfi, Solfedjio, garmoniya, musiqiy tahlil, chet el musiqasi tarixi, o‘zbek musiqasi, kabi ko‘plab fanlar bilan uslubiy jihatdan uzviy mushtaraklik kasb etadi. O‘quv rejasida ko‘rsatilgan oshirish o‘quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

Mazkur fan yuzasidan qo‘yilgan asosiy maqsad - talabalarda jamoada ishlashi o‘rganish, nota o‘qish malakasini rivojlantirish, gamonik jihatdan sulhni oshirish, ijro o‘zlashtirish, dirijorlik kasbini egallash, cholg‘ushunoslik, ansaml sinfi, jahon, o‘zbek kompozitor hamda bastakorlarining musiqa merosi haqida tasavvurlarga ega bo‘lishi lozim.

Orkestr sinfi fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, talabalar to‘rt yil davomida umumiy orkestr sinfi bo‘yicha saboq oladi. Ushbu modul o‘n sakkizta mavzuni o‘z ichiga olib, bir semestr davomida o‘tiladi. Har bir semestrda yangi dasturlar olinganligi sababli, yuqorida berilgan mavzular keyingi modullarda ham takrorlanadi.

Ushbu fanga alohida mehr qo‘yib o‘qigan talabalar - dirijyorlik kasbini egallashlari uchun katta maktab va saboq oladi.

Talaba o‘z iqtidorini rivojlantirishga mumtazam harakat qilishi, ijro etayotgan jorning talablarini to‘laqonli bajarishi, jo‘mavozlik qilish, so‘z va ichki madaniyat bilan birga milliy ijrochilik ustublarini qo‘llay bilish kabi bilim va ko‘nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqa sohasidagi o‘rta maxsus ta‘lim muassasalaridagi xalq cholg‘ulari orkestrlarida, turli professional va havaskor ijodiy jamoalarda, musiqiy madaniyat muassasalarida ishlash ko‘nikmalarini ozlashtirishlari lozim.

2. “Orkestr sinfi (O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri)” fani bo‘yicha o‘tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi amaliy ijrosini

BAHOLASH MEZONI

“Orkestr sinfi (O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri)” fanidan bakalavriyat yo‘nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi amaliy ijro usulda o‘tkaziladi. “Orkestr sinfi (O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri)” fanidan 2ta kuy 2 ta asarning har biridan olishi mumkin bo‘lgan maksimal ball 25 ga teng bo‘lib, jami 100 ball to‘plash mumkin.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi
1	21.5-25	A'lo (86-100)	Cholg'u ansamblida cholg'ular joylashuvi, sozlar mutanosibligi, sadolanishi, badiiy ijro, ritm, usul, uslub, dinamik tuslanish, jo'mavozlik mahoratlari bilan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni to'la ijro qila olsa, dasturda ko'zda tutilgan asarlar yuqori saviyada ijro qilinsa, cholg'u ansambllarining tarixi, shakllanishi haqida qiyosiy tushunchaga ega bo'lsa, ijro jarayonida turli sozlar sadosini his eta olsa. Musiqiy ta'sirlanish vositalarini hamjihatlik bilan ijro qilsa, xalq musiqa durdonasi mumtoz va maqom mushkiloti sho'balaridan ijro qilsa. O'zbekiston bastakorlarining asarlarini to'la tahlil qilib ijro qilsa, major va minor gammalarni turli shtrixlardaijro qila olsa "A'lo" baho qo'yiladi.
2	18 -21	Yaxshi (71-85)	Xalq musiqasi mumtoz va maqom va maqom mushkiloti sho'balari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa, ansambl ijrosi jarayonida jo'r bo'lib chalish, o'zi va boshqalarni eshitish malakalarini egallagan bo'lishi lozim. Musiqiy asarlarni o'rganish jarayonida, mazkur asarga mos, asarlarini mustaqil ijro etib, tahlil qila olsa, majorli hamda minorli gammalarini turli shtrixlarda mohirona ijro eta olmasa "Yaxshi" baho qo'yiladi.
3	14-17,5	Qoniqarli (55-70)	Ansambl turlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmasa; kuy parchalarini qisman tahlil qila olsa; ma'lum musiqa asaridagi lad, o'lchov, alteratsiya belgilari, cholg'ular diapazoni, registr, engormanizm, uchtovushliklarni ijroda to'liq ifodalay olmasa, ansambl tarkibidagi cholg'u asboblarini mukammal ijro eta olmasa "Qoniqarli" baho qo'yiladi
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-54)	Turli shtrixdagi mashq va gammalarni ijro qila olmasa, ijro etilgan musiqa asarlarini mustaqil chalib tahlil qila olmasa, ansambl tarkibidagi cholg'u asboblarining sozlanishi hamda joylashuvini bilmasa, musiqiy asarlarga doir amaliy mashqlarni bajara olmasa "Qoniqarsiz" baho qo'yiladi.

Asosiy amaliy qism (guruhli mashg'ulotlar)

1-Modul, Orkestr sinfi faniga kirish.

1-mavzu. Yangi asarlar bilan tanishuv.

Orkestr bilan ishlash uchun asarlar - orkestr sinfini olib borayotgan o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Asarlar talabalarning ijro ko'nikmalarini shakllantiradigan, ijro ustublarining mukammalligi, asarning orkestr ijrosidagi jarangi kabi jihatlarni o'ylagan holda tanlanadi. Shuningdek, tanlanayotgan asarlar: xarakter, o'lchov, shakl, jo'mavozlik (xonanda, xor, yakkanavoz) musiqiy yo'nalishlar (klassik, romantik, zamonaviy va h.k.) hamda kompozitorlarning geografik jihatdan turli ko'rinishda bo'lishiga (O'zbekiston va boshqa o'lka kompozitorlari) ahamiyat beriladi. Ushbu asarlar Semestr ohirida beriladigan kontsertni (yoki imtihonni) hisobga olgan holda tanlanadi.

Asarlarning to'liq mazmuni, o'lchovi, shakli, kompozitorning hayoti va ijodi bilan o'qituvchi talabalarni tanishtiradi. Tarqatilgan asarlarning ilk nota o'qishlari boshlanadi.

2-mavzu. Shtrixlar ustida ishlash.

Shtrixlarning to'g'ri ijrosi - har bir asaming mazmun jihatidan to'liq berishida katta rol o'ynaydi. Ular turli cholg'ularda turli uslublarda ijro etiladi Shtrixlarning qanday ijro etilishi va nima uchun bu ijro ayni shu asarda kerakligi, bu fa etishi o'qituvchi tomonidan talabalarga tushuntiriladi o'rgatadi hamda ijroni sozanda - talabadan talab qiladi.

3-mavzu. Guruhlar bilan ishlash.

Orkestrdagi har bir guruh (yoki cholg'u) o'zining temбри bilan asar mazmunini boyitadi. Shuning uchun, asar ijrosini mukammal bo'lishi maqsadida: guruhlardagi ansambl", shtrix, dinamik va xarakterli ijrolarni - bir ma'romda ta'minlash lozim. jirijyor (o'qituvchi) guruhlar bilan alohida ishlashi juda muhim. Masalan: kamonli cholg'ular guruhida - kamonlarni bir omonga tortish, mezrobli cholg'ularda - mediatorni (mezrobni) qanday boshqarish, chertma cholg'ularda shtrixlarning bir xilligiga erishish va h.k.

4-mavzu. Dinamika ustida ishlash.

Asarda dinamik ijro mukammalligi ham - mul lardan biri hisoblanadi. Butun orkestrda hamma vaqt ham bir hil dinamik belgi qo'yilmaydi. Masalan: asosiy ohang bir guruhda (yoki cholg'uda) bo'lsa, qolgan guruhlar jo'rnavoz sifatida ijro etishi mumkin. Asta — sekin ovozni kuchaytirish (crescendo) va aksincha: asta – sekin ovozni susaytirish (diminuendo), sfartsando yoki subitopiano va h.k. ijrolarini amalga oshirish jarayonida dirijyor talabaga o'rgatadi va ijroni talab qiladi.

5-mavzu. Jumalalar ustida ishlash.

Musiqiy jumalalar har asarning asosi hisoblanadi. Jumalardan, qismlar - qismlardan esa butun asar paydo bo'ladi. Har bir jumla o'zining avj nuqtasiga ega. Avj nuqta esa — dinamik va xarakter jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Bu kabi jumalalar bir nechta bo'lib, biron bir qismning eng katta avjini mumkin. Ushbu ijrolari qanday amalga oshirish keraki o'rgatadi va ijroni talab qiladi.

6-mavzu. Jo'rnavozlik san'ati

Orkestrda jo'mavozlik san'ati ham - muhim ijro yo'nalishlaridan biridir. Ushbu ijro yo'nalishi talabalarda diqqatni yanada oshirish (shuningdek, o'qituvchining Qirijyorlik harakatlariga). ikkilamchi ohanglarni aniq ijrosiga erishish va solistni his eta olish kabi xususiyatlarini shakllantiradi. Orkestr va jo'rnavozlik ijrolarini - bir asarning o'zida birlashtirishni o'rganadi.

7-mavzu. Ijro madaniyati.

Ijro madaniyati professional orkestrlarni asosiy tashrif qog'ozlaridan biridir. Sozandalar bir-birlarini qanday sezish, tovushlar chiqarilishiga hamda dinamik ijrolarga yondashuv, qanday gavda holatida jumalarni ma'romiga etkazish kabi jarayonlarni o'rgatiladi.

8-mavzu. Tovush chiqarish ustida ishlash.

Musiqiy tovushlarning ijrosi ham alohida mahorat talab etadi. Tovushlardagi illik yoki kenglik kabi tushunchalarni anglash va ularni ijro eta olishlik talabalarga tushuntiriladi va o'rgatiladi. Ushbu ijrolarning talabi, asarning mazmunidan kelib chiqqan holda turlisha bo'lishi bo'lishi mumkin. Bu kabi ijro talablarining bajarilishi, asaming mazmuni mohiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

9-mavzu. Klassik asarlar ijrochiligi

Har bir orkestr turlari klassik asarlarga murojaat etadi. Xalq cholg'ulari orkestri ham bundan mustasno emas. Chunki bu kabi asarlar sozandalarni professional darajasini ushlab turish uchun juda muhim. Orkestr ijrochiligida zarur bo'lgan barcha talablar - bu kabi asarlarda o'z aksini topadi va har bir tovushni mukammal ijrosini ta'minlashga o'rgatadi.

Shuningdek, talabalar klassik kompozitorlarning asarlari bilan yaqindan tanishadi.

10-mavzu. Romantik asarlar ijrochiligi.

Orkestr ijrochiligida har bir musiqiy oqim namoyondalarining asarlari bo'lishi shart. Shuning uchun ham, talabalarining o'qishi borasida turli yillarda va oqimlarda yozilgan asarlar hamda ularning ijrolari bilan tanishtirib borish o'qituvchining asosiy Vazifalaridan biridir. Romantizm yo'nalishida ijod qilgan kompozitorlarning asarlari ham bundan mustasno emas.

Ushbu asarlar ohangdorlik, dasturiylik va mazmunga boyliligi bilan alohida ajratib turadi. Ijroda kenglik va engillik paydo bo'lishiga erishiladi. Shuningdek, va uning namoyondalari hamda ularning asarlari bilan

11-mavzu. Xalq va o'zbek kompozitorlari asarlari ijrochiligi.

Xar bir xalqning asarlari o'z jozibasiga ega. Shu sababli ham - o'zbek xalq kuylari (qayta ishlangan) va O'zbekiston kompozitorlarining asarlarini o'rganish, alohida ahamiyatga ega. O'zbek musi katta e'tibor hamda professionalizm talab etadi. Melizmlarning guruhlarda yoki orkestrda bir xil chiqishi uchun o'qituvchi biror melizmning bitasini - eng chuqur va asarning xarakteriga mos kelganini tanlab oladi (melizmi har bitta ijrochi o'zicha tushinishi va talqin etishi mumkin). Ular

turli guruhlarda turlicha ijro etilganligi uchun, o'qituvchi orkestrning ansambl" ijrosini ta'minlash maqsadida, har bir soz (guruh) uchun eng mos ijroni tanlaydi va guruh sozandalaridan bir hil ijroni talab etadi.

12-mavzu. Talabalarni dirijyor harakatlariga diqqatini oshirish.

Bu jarayonga deyarli har bir dars davomida ahamiyat berilsada, asarlarning mukammal ijrosiga erishish uchun, talabalar o'z partiyalarini a'lo darajada o'zlashtirgan bo'lishlari shartdir. Chunki, partiyalar o'zlashtirilmagan bo'lsa, talabalar ko'proq diqqatini notaga qaratadi va dirijyorlik harakatlariga e'tibori susayadi. Shuning uchun, har bir dars boshlanishida gammalar ijro etilib, ushbu jarayonda dinamik va shtrix jihatdan turlicha bo'lgan mashqlar bajariladi. Shu orqali talabalarda dirijyor harakatlariga e'tiborni oshirish shakllantirib boriladi.

13-mavzu. Orkestr sinfida psixologik jarayon.

O'qituvchining muhim vazifalaridan biri. Psixologik jarayon dars davomida ijodiy kayfiyatni paydo qiladi. Dirijyor sozandalar bilan uzviy bog'lanadi. Bu ko'rinmas rishta bo'lib, o'qituvchi ushbu darajaga ko'p yillar davomida erishadi. Kasbiy mahorati, tafakkuri va so'z boyligining kengligi hamda bilimi bilan talabalarga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Talabalar o'qituvchining bu kabi mahoratlarini o'z vaqtida ishlata ilim birga birga ma'naviy saboq ham oladi.

14-mavzu. Talabalarni orkestr faoliyatiga tayyorlash.

Ushbu jarayonga ham har bir dars davomida o'qituvchi tomonidan ahamiyat berilsada, alohida yondashuv talab etiladi. Avvalambor, psixologik ijodiy jarayonni yaratish, asarlarga talabalarni qiziqitira bilish, dirijyor - har bir cholg'uchini nazarida ushlab turish orkestr faoliyatiga tayyorlashning muhim omillaridan hisoblanadi.

Shuningdek, dars boshlanishidagi gamma va mashqlarning qay darajada ijro etilishi ham ushbu faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

15-mavzu. Asarlarning badiiy talqini ustida ishlash.

Har bir asar o'zining mazmuniga ega. Asar muallifi - kompozitor, ushbu asari orqali nimani yoritib bermoqchi va ushbu mazmunni ochib berish uchun qanday ijro uslublariga e'tibor berish kerak kabi savollarga javob beriladi. Mazmun va obrazlar talqini talabalarga mukammal tushuntiriladi. Jumlar, qismlar va asarning butun ijrosi, uning avj nuqtalari, shirix, xarakter, musiqiy surati va dinamik ijrolari ustida mukammal ishlanadi.

16-mavzu. Ijro texnikasi ustida ishlash.

Orkestrda ijro texnikasi ham muhim o'rin tutadi. Asarlarda tezlik yoki tremolo jihatidan muhim ijroni talab etadigan jumlar yoki qismlar bo'lishi tabiiy. Ushbu talablarni bir xil tezlikda ijro etish uchun turli ko'rinishdagi mashqlar bajariladi. Ushbu mashqlarning qanday bo'lishini, o'qituvchi - asarning tonalligi, ritmik ko'rinishlaridan kelib chiqqan holda tanlaydi. Bu mashqlarni dars boshlanishidagi gamma ijrolarida yoki dars jarayonida qo'llashi mumkin.

17-mavzu. Orkestr ijrosida tovushlar mutanosibligiga erishish.

Tovushlar mutanosibligiga erishishning ilk bosqichlari talabalarni yonidagi va orkestr sozandalarni eshita bilish qobiliyatini shakllantirishdir. Har bir cholg'u o'z tembriga ega bo'lsada, orkestr ijrosiga mutanosib ravishda ijro eta bilishi juda muhim. Talaba - birinchi yoki ikkinchi (va b.q.) darajadagi ovoz partiyalarini ijro etayotganini sezish va ushbu partiyani qaysi shirix, xarakter, dinamika yoki tezlikda chalishini his orkestr ijrosida tovushlar mutanosibligiga erishishga muhim.

18-mavzu. Kontsert ijrochiligiga tayyorgarlik.

Eng so'ngi va muhim bosqichlardan biridir. Ushbu jarayonlarni nafaqat o'qituvchi ilan kutadi. Ba'zida, bu bosqichdagi darslarda, talabalarda o'ziga ortiqcha ishonish paydo bo'lib, o'zlarining ijro madaniyatini boshqarishida susayish kuzatiladi. Ushbu davrda talabalar, konsert dasturining barcha ijro talablarni o'zlashtirgan holatga keladi. Lekin, konsert ijrosi nafaqat partiyani yaxshi chalib qo'yish balki, sahna va ijro madaniyati, jo'mavozlik san'ati, psixologik tayyorgarlik, konsert dasturi ijrochiligida bir butunlik kabi ko'p jarayonlarni ham talab etadi

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda o'qituvchining - dirijyor sifatida kasbiy mahorati katta ahamiyatga ega.

2-Modul. Ijro madaniyati,

19-mavzu. Yangi asarlar bilan tanishuv.

Orkestr bilan ishlash uchun asarlar — orkestr sinfini olib borayotgan o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Asarlar talabalarining ijro ko'nikmalarini shakllantiradigan, ijro uslublarining mukammalligi, asarning orkestr ijrosidagi jarangi kabi jihatlarni o'ylagan holda tanlanadi. Shuningdek, tanlanayotgan asarlar: xarakter, o'lehov, shakl, shlar (klassik, romantik, zamonaviy va h.k.) hamda kompozitorlarning geografik jihatdan turli ko'rinishda bo'lishiga (O'zbekiston va boshqa o'lka kompozitorlari) ahamiyat beriladi. Ushbu asarlar Semestr ohirida beriladigan kontsertni (yoki imtihonni) hisobga olgan holda tanlanadi.

Asarlarning to'liq mazmuni, o'lehoi, shakli, kompozitorning hayoti va ijodi bilan o'qituvchi talabalarni tanishtiradi. Tarqatilgan asarlarning ilk nota o'qishlari boshlanadi.

20-mavzu. Shtrixlar ustida ishlash.

Shtrixlarning to'g'ri ijrosi - har bir asaming mazmun jihatidan to'liq ochib berishida katta rol o'ynaydi. Ular turli cholg'ularda turli uslublarda ijro etiladi. Shtrixlarning qanday ijro etilishi va nima uchun bu ijro ayni shu asarda kerakligi, bu shirixni ijrosi nimani ifoda etishi o'qituvchi tomonidan talabalarga tushuntiriladi va o'rgatadi hamda ijroni sozanda - talabadan talab qiladi.

21-mavzu. Guruhlar bilan ishlash.

Orkestrdagi har bir guruh (yoki cholg'u) o'zining tembri bilan asar mazmunini uchun, asar ijrosini mukammal bo'lishi maqsadida: guruhlardagi ansambl, shirix, dinamik va xarakterli ijrolami - bir ma'romda ta'minlash lozim bo'ladi. Ularning bu kabi ijroga erishishi uchun dirijyor (o'qituvchi) guruhlar bilan alohida ishlashi juda muhim. Masalan: kamoni cholg'ular guruhida - kamonlarni bir tomonga tortish, mezrobli cholg'ularda - mediatori (mezrobni) qanday boshqarish, chertma cholg'ularda shtrixlarning bir xilligiga erishish va h.k.

22-mavzu. Dinamika ustida ishlash.

Butun orkestrda hamma vaqt ham bir hil dinamik belgi qo'yilmaydi. Masalan: asosi chang bir guruhda (yoki cholg'uda) bo'lsa, qolgan guruhlar jo'mavoz sifatida ijro tishi mumkin. Asta - sekin ovozni kuchaytirish (crescendo) va aksincha: asta - sekin ovozni susaytirish (diminuendo), sfartsando yoki subitopiano va h.k. ijrolarini amalga oshirish jarayonida dirijyor talabaga o'rgatadi va ijroni talab qiladi.

23-mavzu. Jumlar ustida ishlash.

Musiqiy jumlar har asarning asosi hisoblanadi. Jumladan, qismlar - qismlardan esa butun asar paydo bo'ladi. Har bir jumla o'zining avj nuqtasiga ega. Avj muqta esa - dinamik va xarakter jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Bu kabi jumlar bir nechta bo'lib, biron bir qismning eng katta avjini - aynan bitta jumla ochib berishi mumkin. Ushbu ijrolami qanday amalga oshirish kerakligini o'qituvchi talabalarga o'rgatadi va ijroni talab qiladi.

24-mavzu. Jo'rnavozlik san'ati.

Orkestrda jo'mavozlik san'ati ham - muhim ijro yo'nalishlaridan biridir. ijro yo'nalishi talabalarda diqqatni yanada oshirish (shuningdek, o'qituvchining dirijyorlik harakatlariga), ikkilamchi ohanglarni aniq ijrosiga erishish va solistni his eta olish kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Orkestr va jo'rnavozlik ijrolarini - bir asarning o'zida birlashtirishni o'rganadi.

25-mavzu. Ijro madaniyati

Ijro madaniyati - professional orkestrlarni asosiy tashrif qog'ozlaridan bi Sozandalar bir-birlarini qanday sezish, tovushlar chiqarilishiga hamda dinamik ijrolarga yondashuv, qanday gavda holatida jumlarini ma'romiga etkazish kabi jarayonlarni o'rgatiladi.

26-mavzu. Tovush chiqarish ustida ishlash.

Musiqiy tovushlarning ijrosi ham alohida mahorat talab etadi. Tovushlardagi chuqurlik, engillik yoki kenglik kabi tushunchalarni anglash va ularni ijro eta olishlik talabalarga tushuntiriladi va o'rgatiladi. Ushbu ijrolaning talabi, asarning mazmunidan, kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi bo'lishi mumkin. Bu kabi ijro talablarining bajarilishi, asaming mazmuni mohiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

27-mavzu. Klassik asartar ijrochiligi.

Har bir orkestr turlari klassik asarlarga murojaat etadi. Xalq cholg'ulari orkestri ham bundan mustasno emas. Chunki bu kabi asarlar sozandalarni professional darajasini ushlab turish uchun juda muhim. Orkestr ijrochiligida zarur bo'lgan barcha talablar - bu kabi asarlarda o'z aksini topadi va har

ritmik jar

bir tovushni mukammal ijrosini ta'minlashga o'rgatadi. Shuningdek, talabalar klassik kompozitorlarning asarlari bilan yaqindan tanishadi.

28-mavzu. Romantik asarlar ijrochiligi.

Orkestr ijrochiligidagi har bir musiqiy oqim namoyondalarining asarlari bo'lishi shart. Shuning uchun ham, talabalarning o'qishi borasida turli yillarda va oqimlarda yozilgan asarlar hamda ularning ijrolari bilan tanishtirib borish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Romantizm yo'nalishida ijod qilgan kompozitorlarning asarlari ham bundan mustasno emas.

Ushbu asarlar ohangdorlik, dasturiylik va mazmunga boyliligi bilan alohida ajralib turadi. Ijroda kenglik va engillik paydo bo'lishiga erishiladi. Shuningdek, o'qituvchi ushbu yo'nalish va uning namoyondalari hamda ularning asarlari bilan talabalarni tanishtiradi.

29-mavzu. Xalq va o'zbek kompozitorlari asarlari ijrochi

Har bir xalqning asarlari o'z jozibasiga ega. Shu sababli ham - o'zbek xalq kuylari (qayta ishlangan) va O'zbekiston kompozitorlarining asarlarini o'rganish, alohida ahamiyatga ega. O'zbek musiqasi - shtrix va melizmlarga juda boy va ijro jihatdan katta e'tibor hamda professionalizm talab etadi. Melizmlarning guruhlarda yoki orkestrda bir xil chiqishi uchun o'qituvchi biror melizmning bittasini - eng chuqur va asaming xarakteriga mos kelganini tanlab oladi (melizmni har bitta ijrochi o'zicha tushinishi va talqin etishi mumkin). Ular turli guruhlarda turlicha ijro etilganligi uchun, o'qituvchi orkestrning ansambl" ijrosini ta'minlash maqsadida, har bir soz (guruh) uchun eng mos ijroni tanlaydi va guruh sozandalaridan bir hil ijroni talab etadi.

Talabalarni o'zbek musiqasi va O'zbekiston kompozitorlari va ularning asarlari bilan tanishtiradi.

30-mavzu. Talabalarni dirijyor harakatlariga diqqatini oshirish.

Bu jarayonga deyarli har bir dars davomida ahamiyat berilsada, asarlarning mukammal ijrosiga erishish uchun, talabalar o'z partiyalarini a'lo darajada ko'proq diqqatini notaga qaratadi va dirijyorlik harakatlariga e'tibori susayadi. Shuning uchun, har bir dars boshlanishida gammalar ijro etilib, ushbu jarayonda dinamik va shtrix jihatdan turlicha bo'lgan mashqlar bajariladi. Shu orqali talabalarda dirijyorlik harakatlariga e'tiborni oshirish shakllantirib boriladi.

31-mavzu. Orkestr sinfida psixologik jarayon.

O'qituvchining muhim vazifalaridan biri. Psixologik jarayon dars davomida ijodiy kayfiyatni paydo qiladi. Dirijyor sozandalar bilan uzviy bog'lanadi. Bu ko'rinmas rishta bo'lib, o'qituvchi ushbu darajaga ko'p yillar davomida erishadi. Kasbiy mahorati, tafakkuri va so'z boyligining kengligi hamda bilimi bilan talabalarga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Talabalar o'qituvchining bu kabi mahoratlarini o'z vaqtida ishlata olishi orqali bilim bilan birga ma'naviy saboq ham oladi.

32-mavzu. Talabalarni orkestr faoliyatiga tayyorlash.

Ushbu jarayonga ham har bir dars davomida o'qituvchi tomonidan ahamiyat berilsada, alohida yondashuv talab etiladi. Avvalambor, psixologik ijodiy jarayonni yaratish, asarlarga talabal: tira bilish, dirijyor - har bir cholg'uchini nazarida ushlab turish orkestr faoliyatiga tayyorlashning muhim omillaridan hisoblanadi.

Shuningdek, dars boshlanishidagi gamma va mashqlarning qay darajada ijro ham ushbu faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

33-mavzu. Asarlarning badiiy talqini ustida ishlash.

Har bir asar o'zining mazmuniga ega. Asar muallifi - kompozitor, ushbu asari orqali nimani yoritib bermoqchi va ushbu mazmunni ochib berish uchun qanday ijro ustublariga e'tibor berish kerak kabi savollarga javob beriladi. Mazmun va obrazlar talqini talabalarga mukammal tushuntiriladi. Jumlar, qismlar va asaming butun ijrosi, uning avj nuqtalari, shirix, xarakter, musiqiy surati va dinamik ijrolari ustida mukammal ishlanadi.

34-mavzu. Ijro texnikasi ustida ishlash

Orkestr ijro texnikasi ham muhim o'rin tutadi. Asarlarda tezlik yoki tremolo jihatidan muhim ijroni talab etadigan jumlar yoki qismlar bo'lishi tabiiy. Ushbu talablarni bir xil tezlikda ijro etish uchun turli ko'rinishdagi mashqi mashqlarning qanday bo'lishini, o'qituvchi - asaming tonalligi,

ritmik ko'rinishlaridan kelib chiqqan holda tanlaydi. Bu mashqlarni dars boshlanishiga yoki dars jarayonida qo'llashi mumkin.

35-mavzu. Orkestr ijrosida tovushlar mutanosibligiga erishish.

Tovushlar mutanosibligiga erishining ilk bosqichlari talabalarni yonidagi va orkestr sozandalarni eshita bilish qobiliyatini shakllantirishdir. Har bir cholg'u o'z tembriga ega bo'lsada, orkestr ijrosiga mutanosib ravishda ijro eta bilishi juda muhim. Talaba - birinchi yoki ikkinchi (va b.q.) darajadagi ovoz partiyalarini ijro etayotganini sezish va ushbu partiyani qaysi shtrix, xarakter, dinamika yoki tezlikda chalishni his etishni orkestr ijrosida tovushlar mutanosibligiga erishishga muhim.

36-mavzu. Kontsert ijrochiligiga tayyorgarlik.

Eng so'ngi va muhim bosqichlardan biridir. Ushbu jarayonlarni nafaqat o'qituvchi balki talabalar ham intiqlik bilan kutadi. Ba'zida, bu bosqichdagi darslarda, talabalarda o'ziga ortiqcha ishonish paydo bo'lib, o'zlarining ijro madaniyatini boshqarishida susayish kuzatiladi. Ushbu davrda talabalar, kontsert dasturining barcha ijro talablarni o'zlashtirgan holatga keladi. Lekin, kontsert ijrosi nafaqat partiyani yaxshi chalib qo'yish balki, sahna va ijro madaniyati, jo'mavozlik san'ati, psixologik tayyorgarlik, kontsert dasturi ijrochiligida bir butunlik kabi ko'p jarayonlarni ham talab etadi.

“Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda o'qituvchining - dirijyor sifatida kasbiy mahorati katta ahmiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Orkestr sinfi” faniga kirish.
2. Shtrixlar ustida ishlash
3. Guruhlar bilan ishlash.
4. Dinamika ustida ishlash
5. Jummlar ustida ishlash.
6. Jo'mavozlik san'ati.
7. Ijro madaniyati.
8. “Tovush chiqarish ustida ishlash.
9. Klassik asarlar ijrochiligi.
10. Romantik asarlar ijrochiligi.

Ushbu fan bo'yicha yakka mashg'ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu nazariy o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, yakka mashg'ulotlarda har bir mavzu yuzasidan yangi talqinlarda ijro etib ko'rish, har bir talabaning individual xarakteridan kelib chiqib berilgan musiqiy asami mustahkamlash yaxshi natija beradi

“Yakka mashg'ulotlari ayrim asarlarning ijro talqinlari musiqiy yozuvlarini tinglab ko'rish, tajriba repetitsiyalar vositasida o'z ijodiy yoki zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalari uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yiladi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Oddiy va murakkab chizmalarni o'zlashtirish.
2. O'zbekiston va jahon zamonaviy kompozitorlari asarlari bilan tanishtirish.
3. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun yozilgan asarlar ustida ishlash.
4. Jo'mavozlik mahoratini oshirish.
5. Yirik shakldagi asarlarni o'rganish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

-darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

-tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

-avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

-talabning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasi mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahimova F., U. Yunusov. Orkestr sinfi. O'quv-qo'llanma. T., 2016.
2. Umarov Sh. Dirijyorlik. O'quv-qo'llanma. T., 2016.
3. Abdurahimova F. Orkestr sinfi .T., 2015
4. Abdurahimova F. Orkestr sinfi. O'quv-qo'llanma. T., 2012.
5. Haqnazarov Z. Dirijyorlik haqida. O'quv-qo'llanma. T., 2012.
6. Неймер В. Психология лирижирования. Учебное пособие. Т., 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar, №11
8. Кодиров Р. Музыка педогогикаси. Т, 2011
9. Akmaljanova M. Dutor orkestri. Т. 2004
10. Azimov K. O'zbekiston dirijyorlar. Т., 2001
11. Томирканов Ю. Меня выбрал коллектив Музыкальная жизнь, 1994, №3
12. Вржемский Г. Психология лирижирования. М. 1988.
13. Мусии И.О воспитании лирижера. Л. "Музыка", 1987
14. Хайкин Б. Бесслм о дирижёрском ремесле, Статьи, М. 1984.
15. Силелиников Л. Владимир Фелоссь.М. 1982.
16. Кан Э. Элементы дирижирования. Л. 1980
17. Кондрашин К. Мир дирижёра М. 1976.
18. Фомни В. Оркестром лирижирует Мравинский Л., "Музмка", 1976
19. Рождественский Г.Н. Дирижерская аппликатура. Л. "Музыка", 1974.
20. Канерштейн М. Вопросы дирижирования. М. "Музыка", 1972
21. Фомин В. Оркестр и дирижер. Л. 1969.
22. Кизачков С.А. Дирижёрский аппарат и его постановка. М., "Mystixa", 1967.
23. Мюнш III. Я.дирижёр М. 1965

Internet saytlari

1. www.gov.uz — O'zbekiston Respublikasi davlat portali.
2. www.lex.uz — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlai ma'lumotlari milliy bazasi.

2. "Xalq cholg'ularida ijrochilik" fani bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi amaliy ijrosini BAHOLASH MEZONI

"Xalq cholg'ularida ijrochilik" fanidan bakalavriat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi amaliy ijro usulda o'tkaziladi. "Xalq cholg'ularida ijrochilik" fanidan 2 ta asarning har biridan olishi mumkin bo'lgan maksimal ball 50 ga teng bo'lib, jami 100 ball to'plash mumkin.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi
1	21,5-25	A'lo (86-100)	<p>"5" baho (a'lo)</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo'yicha xulosa va qarorlar qabul qilish, a'lo darajada; - o'tilgan asar bo'yicha ijodiy fikrlash yaxshi shakllantirilgan. Asar mualliflari: bastakor, shoir va ijrochilar tarkibi haqida tushunchaga ega bo'lingan; - asar ijrosida mustaqil nola va bezaklarni maxorat bilan ishlatish ko'nikmalarini egallagan; - o'rgatilgan asarni mustaqil kuylay olish malakalari egallangan; - mavzu va asar bo'yicha mazmun va mohiyati to'liq o'rganilgan, tushuncha mavjud; - nazariy va amaliy bilimlarni bilishi, javob berishi yaxshi yo'lga qo'yilgan; - mavzu yuzasidan talaba to'liq tasavvurga ega, javob berishi "A'lo" baho qo'yiladi.
2	18 -21	Yaxshi (71-85)	<p>"4" baho (yaxshi) uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu yuzasidan mustaqil, keng tushunchaga ega. Asarning ahamiyati, ijobiy xususiyatlari, ijrochilar tarkibi haqida mushoxada yurita oladi; - o'rgangan qo'shiqlarni mustaqil amalda ijro eta oladi; - mavzu va asarning mohiyati, foydali tomonlari haqida keng fikrlay oladi; - o'rganilgan asarlar haqida boy bilimlarga ega asarni mustaqil kuylab bera oladi; - o'rgangan asarlar yuzasidan talaba to'liq tasavvurga ega ko'nikma va malakalar yaxshi egallangan. <p>"Yaxshi" baho qo'yiladi.</p>
3	14-17,5	Qoniqarli (55-70)	<p>"3" baho (qoniqarli) uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu va asar bo'yicha mazmun va mohiyati to'liq o'rganilgan, tushuncha mavjud; - nazariy va amaliy bilimlarni bilishi, javob berishi yaxshi yo'lga qo'yilgan; - mavzu yuzasidan talaba to'liq tasavvurga ega, javob berishi yaxshi. <p>"Qoniqarli" baho qo'yiladi</p>

4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-54)	<p>"2" baho (qoniqarsiz) uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu yuzasidan talaba to'liq tasavvurga ega emas; - talaba mavzuni o'zlashtirmagan "Qoniqarsiz" baho qo'yiladi.
---	--------------	-------------------	--

"Xalq cholg'ularida ijrochilik"

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Har tomonlama kamol topgan yuksak mahnaviyatli, zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, mamlakatning san'at sohasi rivojiga munosib xissa qo'shishga qodir, yuksak madaniy va mahrifiy-ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega xalq Cholg'ularida ijrochilik fanining ushbu dasturi jamiyatning san'at sohasi asosiy yo'nalishlaridan cholg'u ligi asoslari, sozandachilikning san'at va madaniyat rivojidadagi o'mi, o'tish davridagi ijtimoiy-madaniy islohotlar va ularning natijalari, san'at ni o'tishi va unga ta'sir etuvchi omillar jahon san'ati rivojlanish kabi masalalar qamrab olgan.

O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Mazkur fan yuzasidan qo'yilgan asosiy maqsad - talaba Cholg'u ijrochi yakkaxon ijrochilik, ansambl, orkestr Cholg'ulari, jahon va O'zbek musiqa merosi haqida tasavvurlarga ega bo'lish, ijrochilik mahoratini takomillashtirish, sahnada ijro etish, yuksak ijrochilikka oid texnika san'at ini mukammal o'zlashtirish ko'nikmasini hosil qilish.

Xalq Cholg'ularida ijrochilik fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, uning o'ziga xos jihatlarini to'la namoyon etishi, kompozitorlar uslubida ixtisoslashuv Cholg'usi ijrochiligiga oid barcha manbalardan foydalangan holda sozandaga saboq berish, milliy ijrochilik uslubining qo'llay bilish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqa sohasidagi o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, opera teatri va studiyalar, turli ijodiy kollektivlarda, musiqiy madaniyat muassasalarida ishlash ko'nikmalarini olishlari zarur.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- professional kontsert ijrochilari;
- orkestr (ansambl) artistlari va ulaming sahnadagi chiqishlari;
- kontsert ijrochilik ko'nikmalari;
- musiqaning shakl tahlilini ochib beruvchi nazariy asoslar xaqida tasavvurga ega bo'lishi;
- ijrochini repertuariga kiritilgan dasturni o'zlashtirishni;
- notadan o'qish ko'nikmasini rivojlantirishni;
- turli xil janrdagi asarlarni ijrochilik tahlilini
- o'zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakldagi xilma-xil janrdagi musiqiy asarlarni yuqori darajada mohirona ijro etishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- tanlangan musiqa Cholg'usida ch
- mutaxassislik bo'yicha o'qituvchil;
- ijrochilik mahoratini takomillashtirish;
- sahnada ijro etish;
- yuksak ijrochilikka oid texnika san'at ini mukammal o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Asosiy qism (yakka tartib mashg'ulotlari)

1-Modul

1-mavzu. Xalq Cholg'ularida ijrochilik (turlari bo'yicha)

Cholg'u ijrochiligi nazariyasi va tarixi. Cholg'u ijrochiligi va cholg'uning tovush imkoniyatlari. Tovush hosil qilish va uning turlari. Ijro uslublari. Cholg'u asarlari va ularni o'zlashtirishga qo'yiladigan nazariy talablar.

2-mavzu. Cholg'u ijrochiligining o'ziga xosliklari.

O'zbekiston kompozitorlarining xalq Cholg'ulari uchun asarlar yaratish tendentsiyalari. Kompozitorlik ijodiyoti namunalari. Ijrochilik ko'nikmalari.

3- mavzu. Ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish va asarlar tahlili

Ijro ko'nikmalarini takomilashtirish. Etyud va gammalar. Pozitsiya va applikatoralar. Milliy musiqa namunalari ijro etish uslublari. Musiqiy bezaklar. Ijro shtrixlari. Cholg'u asarlari tahlili. Musiqiy shakl.

4- mavzu. Ijrochilik yo'nalishlari va amaliyoti.

Ikkita gamma 2 va 3 ta belgili (turli xil shtrixlarda, ikki oktavada), turli xarakterdagi ikkita etyud va klassik kompozitorlarning yirik shakldagi (sonata, kontsert) va syuita (solo) o'rganish va yoddan ijro etish.

2-Modul

1-mansy. Ijrochilik mahoratini rivojlantirish

Akademik kontsertga tayyorgarlik ko'rish. Asarlarni mohirona ijro etish ustida ishlash. Cholg'uda tovushni sifatini, tembrini yaxshilash ustida ishlash.

2-mavzu. Klassik asarlar bilan birga zamonaviy asarlar ustida ishlash.

O'zbek va jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan ikki xil xarakterli pyesa. Klassik kompozitorlarning yirik shakldagi (sonata, kontsert) asarlari. Asarlarni o'rganish va yoddan ijro etish. Cholg'uda tovush sifatini mukammal ijrosi ustida ishlash. Asarlarni badiiy ijro etish darajasiga erishish.

3- mavzu. Musiqiy asarlarni sof ijro usullari ustida ishlash

Ijrochilik mahoratini rivojlantirish ustida ishlash. Cholg'uda tovushni yanada tiniq, ravshan ijrosi ustida ishlash. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish.

4- mavzu. Akademik kontsertda murakkab asarlarni o'rganib yuqori natijalarga erishish.

Ikkita gamma besh va undan ortiq belgili (turli xil shtrixlarda, uch yoki to'rt oktavada). Turli xarakterdagi ikki etyud. O'zbek va jahon kompozitor tomonidan yaratilgan ikki xil xarakterli peg'sa. Klassik kompozitorlarning yirik shakldagi (sonata, kontsert) asari va syuita (solo) o'rganish va yoddan ijro etish.

3-Modul

1-mavzu. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o'rganish

Ijrochilik texnikasini rivojlantirish ustida ishlash. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o'rganish. Turli janrda yozilgan asarlarni tanlab, attestatsiya imtihoniga tayyorgarlik ko'rish. Har xil xarakterda yozilgan pyesalar, kontsertlar, sonata, rapsodiya, fantaziyalar va O'zbekiston kompozitorlarning asarlarini o'rganish.

2-mavzu. Attestatsiya dasturi bo'yicha sinovlarga tayyorgarlik ko'rish.

Yirik shaklda yozilgan asarlar; kontsert, sonata, syuita. Ikkita pyesa; turli janrda yozilgan viriyoz pyesa va zamonaviy asarlar. O'zbekiston kompozitorlarining turli janrda yozilgan asarlarini o'rganib yoddan ijro etish.

3-mavzu. Notadan ravon O'qish malakasi ustida ishlash

Talabalarga avval olgan ijrochilik ko'nikmalarini puxtalashtirish. Ijrolarni yanada rivojlantirish. Notalarni varoqdan ravon o'qish. Nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish. Sozanda-ijrochilarga qo'yiladigan asosiy talablar. umumiy musiqiy-nazariy bilim yanada kengaytirish.

4-mavzu. Notalarni varaqdan ravon o'qish tajribasini muntazam ravishda olib borish.

Bittadan ikki oktavalik major va minor gammalar ijro etish. Ikkita etyud va 3-4 ta har xil xarakter uslubidagi asarlar ijro etish.

4- Modul

1-mavzu. Ko'nikmalarini mukammallashtirish

O'zlashtirilgan ijrochilik ko'nikmalarini mukammallashtirish. Cholg'uning ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish. Ijrochilik uslublari yanada kengroq o'zlashtirish. Talabani mustaqil ravishda mashg'ulot olib borish ko'nikmalariga yo'naltirish. Ikkita peg'sa ijro etish.

2-mavzu. Turli janrda yozilgan-virtuoz peg'sa va zamonaviy asarlar.

Asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish. O'zbek xalq va maqom kuylarini ijro etish. Jahon kompozitorlarining turli janrda yozilgan asarlarini o'rganib yoddan ijro etish.

3-mavzu. Sahnaviy chiqish va maxsus kontsert ko'nikmalari

Davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik ko'rish. Bitiruvchi kurs talabalarining ijrochilik bo'yicha dasturi Davlat attestatsiyasiga yuqori darajada tayyorlash, yanada jadallashtirish, ijro dasturining badiiy jihatlarini yoritish.

4-mavzu. Mohirona ijro etish darajasiga erishish.

Sahnaviy chiqishlar va maxsus kontsertlar uyushtirish. Bitiruvchi talabani Davlat attestatsiyasiga yuqori saviyadagi ijro mahoratlarini ko'rsata oladigan darajada tayyorgarlik ko'rish.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Xalq cholg'ularida ijrochilik haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.
2. ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish va shakllantirish.
3. Ijrochilik mahoratini rivojlantirish.
4. Musiqiy asarlarni sof'ijro usullari ustida ishlash.
5. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o'rganish.
6. Notadan ravon o'qish malakasi ustida ishlash.
7. Ijrochilik ko'nikmalarini mukammallashtirish.
8. Sahnaviy chiqish va maxsus kontsert ko'nikmalarini rivojlantirish.

Orkestr sinfi (O'zbek xalq cholg'ulari orkestri) hamda "Xalq cholg'ularida ijrochilik" fanlaridan talabalarning bilimini aniqlash va baholash mezonlari

№	Umumiy talablar	Maksimal ball	Olgan ball
1.	Ijro dasturi: Ijro dasturining har biriga 25 ball	50 ball	
2.	Kollokvium: A) <u>Asarga oid savollar, asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili uchun</u> – 25 ball B) <u>Musiqacha cholg'ulari va Musiqacha tarixidan berilgan savollar uchun</u> – 25 ball	50 ball	

Ijro dasturi bo'yicha to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball – 100 ball

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: cholg'uda ijro uchun - 50 ball, kollokvium - 50 ball.

Mazkur ta'lim yo'nalishida bitiruv imtihonlarga qo'yiladigan maksimal ball – 100 ball

Pedagogik-metodik dasturlar bilan tanishish

Talabaga to'g'ri dastur tanlash. Gamma, etyud va turli xil mashqlarning turlari. Asarlar. O'zbek xalq kuylari, O'zbekiston kompozitorlarining cholg'u asarlari. Chet el kompozitorlarining asarlari. Zamonaviy o'quv metodik adabiyoti, Asosiy o'quv qo'llanmalar va darsliklar va ularning qisqa xarakteristikasi.

Cholg'u ijroda mashqlarining asosiy vazifalari

1. Ijro jarayonida shtrixlarga e'tibor berish;
2. Ijro jarayonida "aplikaturani" tug'ri ishlatish;
3. Barmoqlarni rivojlantirish uchun turli xil mashqlar;
4. Tovush pardalarini aniq bosish;
5. Ikki oktavada gammalar ijro etish;
6. Estrada xonandaligi uslubidagi barcha texnik yo'nalishlarini egallash.

Ijro jarayonida qo'yiladigan asosiy talablar

Talaba kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshishi shart. Bu uchun har bir mashqni talabaga ijroni tavsiya etishda uni nafaqat yoddan chalish, balki uning asosiy maqsadini mufassal tushuntirib berish lozim. Shunda talaba ongli ravishda ijroni to'g'ri yo'naltiradi, hamda fonetik va texnik qiyinchiliklarni onson yengib o'tadi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. D.Islomov "Ustozlardan doyra saboqlari" Musiqa nashriyoti 2014
2. O.Nazarov, A.Abduraimov Rubob ijrochiligi T., Musiqa nashriyoti 2015;
3. A.Gochbakarov "Rubob prima cholg'u ijrochiligi" T. Musiqa nashriyoti 2015;
4. A. Lutfullaev "Xalq cholg'ularida ijrochi T. Musiqa nashriyoti 2017;
5. A. Tashmatova. "Ijrochilik san'ati tarixi" o'quv qo'llanma, T., Musiqa nashriyoti 2017;
6. A. Tashmatova. "Ijrochilik san'ati tarixi" darslik, T., Musiqa nashriyoti 2018;
7. The History of Muzikal Instruments USA November (2012).
8. Barbara Kreader, Fred Kern, "hailli" Keveren, Mona Rejino. Jano Lessons Book 2001

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T, 2017
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. T., 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini takomilash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T., 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)
5. O.Miskinov "Rubob prima navolari" T., Musiqa nashriyoti 2015;
6. «Uyg'ur maqomining alohidaligi» SHinjon xalq nashriyoti. 1995.
7. Рогол-Ливицкий. Инструменты симфонического оркестра. I, II, III, IV № томм. – М. 1995,
8. Крунтаева ТС, Молокова Н.В. «Словар иностранных музыкальных терминов» ЛМузыка». 1997.

Internet saytlari

9. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
10. www.lex.uz — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
11. <http://veww.youtube.com>
12. hup/b2c.uz/catalog/vouth/uz/musiga
13. www.musika.uz
14. <http://portasound.rwimusic-search/>' musiga-olami

Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasini mudiri:



T.I.Rajabov